



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, [qashqadaryo@exat.uz](mailto:qashqadaryo@exat.uz)

2024 - yil 6 - iyun

225-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Qarshi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi  
asosida yer maydonini ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 16-apreldagi 232-son va Qarshi tumani obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 45-son buyurtma xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qarshi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga tumanidagi avtomobil ichki yo‘llarini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun egallab turgan 27,36 gektar tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining [www.qashqadaryo.uz](http://www.qashqadaryo.uz) rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**

Qashqadaryo viloyat hokimining  
2024-yil 6-iyundagi  
225-4-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**2024-yil "Tashabbusli" byudjet doirasida ichki yo'l ob'ektlari xatlovdan o'tkazilganligi to'g'risida  
ma'lumot**

<b>T/r.</b>	<b>Tuman nomi</b>	<b>MFY nomi</b>	<b>Yo'l uzunligi (km)</b>	<b>Gektari</b>
	<b>Jami</b>		<b>45,6</b>	<b>27,36</b>

1	Qarshi tumani	"Lagandi" MFY Yoshlar, O'zbekiston va Xolmon bobo ko'chalari	3,8	2,28
2		"Ko'chkak" MFY Gulzor, Tabassum va Do'stlik ko'chalari	3,8	2,28
3		"Mang'it" MFY Otchopar qishlog'i "Mustaqillikning 30 yilligi" va Zamon ko'chalari	3,8	2,28
4		"Mang'it" MFY ichki yo'llari	3,8	2,28
5		"Talliquron" MFY Talliquron-1 ko'chasi	3,8	2,28
6		"Talliquron" MFY Gilamchi qishlog'i ichki yo'llari	3,8	2,28
7		Oqmang'it qishlogi Erk kochasi	3,8	2,28
8		"Potron" MFY Sayxun va Vatanparvar ko'chalari	3,8	2,28
9		"Potron" MFY Boboyurt ko'chasi	3,8	2,28
10		"Uzumzor" MFY Yuksalish, Mustaqillik, Temiryo'lchi, Nurli, Kunchiqar va Tinchlik ko'chalari	3,8	2,28
11		"Mustaqillik" MFY O'zbekfayzobod qishlog'i Kamolot va Bobur ko'chalari	3,8	2,28
12		"Chaman" MFY Shodlik, Nasaf, Lolazor, Xudoyzod, Nurli, Chovqay, O'rikzor va Shodlik ko'chalari	3,8	2,28